



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 6 2024-YIL 24-IYUN

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI XALQARO AKKREDITATSIYADAN MUVAFFAQIYATLI O'TDI

Tibbiy kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar davom etmoqda, Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'lif berish mazmuni o'zgardi, endi navbat sifatli ta'lif berish sari ildam qadam.

Toshkent tibbiyot akademiyasi 19 ta ta'lif dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi va xalqaro ta'lif maydonida tan olindi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash sohasida chuqur va mazmuni islohotlar jadal amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, yoshlarni oliy ta'lif bilan qamrovi bir necha barobar oshdi, oliy ta'lif muassasalarini soni qariyib 3 barobar oshdi, bundan tashqari, xususiy oliy ta'lif muassasalarini paydo bo'ldi. Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarini moddiy-teknik bazasi kuchaytirildi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratildi.

Birgina misol Toshkent tibbiyot akademiyasini bosh o'quv binosi o'tgan 2023-2024 o'quv yilida rekonstruksiyanan chiqarilib, zamonaviy jihozlar bilan jihozlandi. Ushbu binoda jahon talablariga mos simulyatsion markaz, biotibbiyot markazi, ta'lifni raqamlashtirish markazi, ilmiy tekshirish laboratoriysi, zamonaviy axborot resurs markazlarini o'z ichiga olgan qariyib 7 mln. AQSH dollarlik jihozlar

bilan boyitilgan innovatsion to'liq raqamlashgan smart o'quv binosi ishga tushirildi.

Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarga javoban "Oliy ta'lif muassasasi qanday ishlarni amalga oshirish kerak?", "Bugungi kunda ta'lif sifati talab darajasiga javob beradimi?", "Shuncha imkoniyatdan keyin ham eski

reytinglardagi o'rnini xolis va haqqoniy baholash mezoni bo'lgan ta'lif indikatorlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Agar buni birgina Toshkent tibbiyot akademiyasi misolida ko'radian bo'lsak o'z-o'zidan xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan tizimli hamkorlik aloqalarini o'rnatish yil sayin samarali natijalarga olib kelayotganiga guvoh bo'lamiz. Tan olish kerak qaysidir rivojlangan mamlakatda e'tirof etilib, egallangan bilim, orttirilgan tajribalar xalqaro reytinglar bazasiga kiritilishi oson jarayon emas.

Bu jarayon uzlusiz bosqichma-bosqich qilinadigan tinim bilmas mehnatni, intilish va rivojlanish strategiyasi bilan mudom hamqadamlikni taqozo etadi.

Muhtaram Prezidentimizning joriy yil 22-yanvardagi "Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida Toshkent tibbiyot akademiyasi ta'lif dasturlarini Butunjahon ta'lif federatsiyasi (World Federation of Medical Education - WFME) standartlariga mos ravishda xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish vazifasi qo'yilgan edi.

Ushbu qaror Yangi O'zbekistonda dunyoqarashi keng, kreativ va tizimli fikrلaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlarni tarbiyalashdek ezgu maqsadni belgilab bergen.

Davlatimiz rahbarining oliy ta'lif

(Davomi 2-betda)



uslublarda ta'lif berishga haqqimiz bormi?" degan savollar turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugun sog'liqni saqlash tizimiga tayyorlayotgan kadrlarimiz kun talabiga javob berishi uchun, bundan tashqari, bitiruvchilarimiz xalqaro maydonda o'z o'rniiga ega bo'lishi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi uchun qanday ishlarni amalga oshirishimiz kerakligi biz o'qituvchi-pedagoglarga katta vazifalar yuklaydi.

Mamlakatimizning xalqaro maydonidagi obro'yini oshirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro



Hilkamatlar
Baxt belgisi — bilim.



(Boshi 1-betda)

tizimini isloh qilishga oid mazkur qarori ijrosini bajarish maqsadida Toshkent tibbiyot akademiyasiga ta'lif dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish vazifasi belgilandi.

Ilmiy pedagogik jamoa bu vazifaning mas'uliyatini chuqr his etgan holda barcha imkoniyatlarimizni ta'lif sifat va samaradorligiga yo'naltirdik. Zero, bugungi kunda olyi ta'lif muassasasining nufuzi, ta'lif sifatini belgilovchi muhim omillardan biri uning xalqaro akkreditatsiyadan o'tganligidir. Shu bois, bu jarayon ilmiy-pedagogik jamoamizdagi har bir pedagog, har bir xodim uchun o'z kasbiga nisbatan yanada e'tiborli yondashuvni kuchaytirdi.

Akademiya jamoasi xalqaro akkreditatsiya jarayoniga tizimli, to'laqonli va puxta tayyorgarlik ko'rdik. Natijada Toshkent tibbiyot akademiyasining mavjud sog'liqni saqlash sohasida 10 ta bakalavriat ta'lif yo'nalishlari: davolash ishi, pediatriya ishi, stomatologiya ishi, farmatsiya, tibbiy-profilaktika ishi, olyi hamshiralik ishi, xalq tabobati, tibbiy-biologik ish, biotibbiyot muhandisligi, menejment: sog'liqni saqlash menejmenti.

Magistraturaning 3 ta, klinik ordinaturaning 3 ta (urologiya, nevrologiya, akusherlik va ginekologiya mutaxassisliklari) ta'lif dasturlari hamda malaka oshirishning 3 ta (Klinik laborator diagnostika, Operativ va diagnostik endoxirurgiya, Oilaviy tibbiyotda eng keng tarqalgan ichki organ kasalliklarini zamonaviy diagnostikasi va davolash) ta'lif dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Xalqaro akkreditatsiyani Butunjahon tibbiy ta'lif federatsiyasi (WFME) standartlari asosida mustaqil akkreditatsiya va reyting agentligi (Independent agency of akkreditation and ranking IAAR) tomonidan o'tkazildi.

Ushbu mustaqil agentlik dunyoning 31 mamlakatining olyi ta'lif muassasalarini yiliga kamida 200dan ortiq ta'lif dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazadigan nufuzli tashkilot hisoblanadi.

Akkreditatsiya jarayonida ta'lif

dasturlari ichki auditdan o'tkazilib, agentlikka hisobot taqdim etildi. Agentlikning 20 nafar tashqi ekspertlari kelib tashqi audit o'tkazdi, bunda talabalar, pedagoglar, rahbariyat, ish beruvchilar, bitiruvchilarni suhabat va savolnoma orqali ularning fikrlarini o'rgandi. Bundan tashqari, Akademiyaning moddiy-texnik bazasining holati, klinik amaliyat bazalari, kafedralardagi o'quv jarayonlar bilan yaqindan tanishib, fikr-mulohazalar, savol-javoblar o'tkazildi. Akkreditatsiya jarayonida ko'plab savollarga javob olishdi. Ekspertlarni yakuniy xulosasiga ko'ra, Toshkent tibbiyot akademiyasining ta'lif dasturlarini Butunjahon tibbiyot ta'lifi federatsiyasi (WFME) xalqaro standartlarga muvofiq baholab, tanoldi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy.

Xalqaro akkreditatsiya Toshkent tibbiyot akademiyasiga nima beradi?

- Eng avvalo TTA bu xalqaro e'tirof sabab jahon ta'lif makonida tan olindi. Endilikda bitiruvchilarimiz xorijining istalgan universitetida ta'limi davom ettirishi va ishga joylashib, litsenziya olishimiz mumkin.

- Qo'shma ta'lif dasturlarini rivojlantirish uchun dunyoning yetakchi universitetlari bilan xalqaro hamkorlik imkoniyatlarimiz kengaydi.

- Ta'lif jarayoni xalqaro talablarga moslashdi, bu degani xalqaro ta'lif bozoridagi raqobatga bemalol ro'baro' kela olamiz.

- Eng asosiysi Toshkent tibbiyot akademiyasi maqomi va ta'lif sifatini xalqaro standartlarga muvofiqligi tasdiqlandi.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, mustaqil akkreditatsiya va reyting agentligi xalqaro ekspertlari tomonidan Toshkent tibbiyot akademiyasining ta'lif jarayonini tashkil etishdagi eng kuchli tomonlari sifatida quyidagilar e'tirof etildi:

- inklyuziv va adolatli sifatlari ta'lifni ta'minlash va barcha uchun umrbod ta'lif imkoniyatlarini rag'batalantirilganligi;

- ta'lif jarayonini ilmiy faoliyat bilan uyg'unlashganligi, ta'lif oluvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda moddiy-texnik baza va laboratoriya imkoniyatlari bilan

yeterlicha qamrab olinganligi;

- ta'lif jarayonini tashkil etishda kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olinishi;

- talabalar uchun ta'lif olish sharoitlarini yetarli tashkil etilganligi, zamonaviy simulyatsiya markazida amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

- ta'lif berish jarayonida sohaning yetuk mutaxassislari ishtiropini ta'minlanganligi, ya'n 150 ga yaqin klinik bazalarida ta'lif olish imkoniyatlarini yaratilganligi;

- ta'lif oluvchilar uchun yetarli fan resurslari va axborot-resurs imkoniyatlari bilan ta'minlanganligi.

Xulosa sifatida keltirish mumkinki, Toshkent tibbiyot akademiyasi Respublikamizdagi yetakchi tibbiy ta'lif tashkiloti sifatida ta'lif jarayonlariga Butunjahon tibbiy ta'lif federatsiyasi (WFME) standartlarini joriy etish bo'yicha pilot loyihami amalga oshirgan ta'lif tashkiloti sifatida o'z o'rniiga ega bo'ldi.

Ushbu yutuq nafaqat Toshkent tibbiyot akademiyasi balki, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining ham katta yutug'i hisoblanadi. Bu esa Prezidentimizning sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan islohotlariga munosib javob deb o'laymiz.

Albatta bu xalqaro akkreditatsiya Toshkent tibbiyot akademiyasi xodimlariga juda katta mas'uliyat yuklaydi, bunda ta'lif berishni shaffof usullarini joriy qilish, ta'lif berishda ingliz tilida ta'lif berishning ulushini oshirish, ta'lif sifati, talabalarni mustaqil ta'limini ulushini oshirish, ularni bilimini baholash tizimini tubdan o'zgartirish, yangi adabiyotlar bilan boyitish, bir so'z bilan aytganda butun pedagoglarimizni zamonaviy dunyoqarash va bugun o'zlarini ham xalqaro talablarga mos bo'lishi kabi mas'uliyatni yukladi. Albatta bunga barcha kuch va salohiyat yetarli va ushbu vazifalarni uddasidan chiqamiz, deb ishonch bildiramiz.

**Shuhrat BOYMURODOV,
TTA rektori v.b. professor,
Gulchehra MIRZAYEVA,
TTA Matbuot xizmati rahbari**



Hilmatflar

Bilim baxt keltirar.





"BALLI QIZLAR" TANLOVI G'OLIBLARI ANIQLANDI

Toshkent tibbiyot akademiyasi Xotin-qizlar kengashi tomonidan talaba-qizlarni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli iste'dodli va zukko talaba-qizlarni jamoatchilikka yetkazish maqsadida "Balli qizlar" ko'rnik-tanloving final bosqichi o'tkazildi.

Tanlovda talaba-qizlar fikrashi, liderlik qobiliyat, ijodkorligi bilan tadbir mehmonlarining olqishlariga sazovor bo'ldi.

Tanlov natijalari quyidagicha:

1-o'rni - 2-son davolash fakulteti talabasi Tursunoy Abdumalikova.

2-o'rni - Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti talabasi Gulzoda Raxmonova.

3-o'rni - 1-son davolash fakulteti talabasi Guljahon Vahobjonova.

"Eng zukko" nominatsiyasi sohibasi deb Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya atrof-muhit muhofazasi va kimyo fakulteti talabasi Namuna Abduraxmonova topildi.

"Eng qobiliyatli" nominatsiyasini Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti talabasi Orzigel Asallayeva qo'lga kiritdi.

G'olib bo'lgan bilimdon va zukko qizlarimiz maxsus esdalik sovg'alar hamda diplom bilan taqdirlandi.

Jamiyatimizda qizlarning har sohada o'z o'rnini mustahkamlash va ularga imkoniyat berish bizning asosiy maqsadimizdir!

ALLERGOLOGIYA-IMMUNOLOGIYA — INNOVATSIYADAN AMALIYOTGA



Poytaxtimizda kuni kecha "Allergobiya-immunobiya — innovatsiyadan amaliyotga" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.

Respublika ixtisoslashtirilgan Allergobiya va klinik immunobiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan tashkil etilgan ushbu xalqaro tadbirda mahalliy mutaxassislar bilan birga qo'shni davlatlardan kelgan yetakchi olimlar ishtiroy etishdi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, hozir yer yuzi aholisining qariyb 40 foizi allergiyadan aziyat chekmoqda. Har uch kishidan biri allergik rinit, har o'ninchisi odam bronxial astmaga chalingan.

Bu global muammo yurtimizda allergik kasalliklarni aniqlash hamda davolash

bo'yicha ilg'or tajribalarni amaliyotga samarali tadbiq etish, sohada ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Keyingi yillarda bu sohani rivojlantrish uchun baracha huquqiy asostar yaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 11-mayda imzolangan "Allergik kasalliklarni profilaktika

qilish, ularga tashxis qo'yish va davolashni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi Qarori sohadagi yangilanishlar uchun dasturulamal bo'ldi.

Oradan 5 yil o'tib, tibbiyotning ushbu muhim yo'nalishini isloh qilish masalasiga yana davlat darajasida e'tibor qaratildi. 2023-yil 23-noyabrdagi mamlatkamiz rahbarining "Allergik kasalliklarning oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'grisida"gi Qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, tibbiyotning birlamchi bo'g'indan boshlab allergik kasalliklarning epidemiologik ko'rsatkichlari ustidan nazorat kuchaytirilishi va manzilli skrining tekshiruvlari joriy etilishi belgilandi.

O'z navbatida, 2024-yil 1-yanvardan


allergik va immunologik kasalliklarga chalingan "ijtimoiy himoya yagona reyestri"da bo'lgan bemornlarni ingalyatsion glyukokortikosteroid dori vositalari bilan bepul ta'minlash tizimi yo'lga qo'yiladi.

Allergik kasalliklar ko'rsatkichlari yuqori hududlarda yiliga kamida bir marta ommaviy va selektiv skrining tekshiruvlari o'tkazilib, hududlarda allergobiya va klinik immunobiya yo'nalishida yuqori texnologik tashxislash va davolash amaliyotlari turlari bosqichma-bosqich 10 turdan 20 turgacha oshirilishi ham muhim yangiliklar sirasidan.

Anjumanda diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini ama-liyotga tadbiq etish, o'zaro tajriba almashish, sohaga oid klinik tavsiyalar, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tartibi va standartlari atroflicha muhokama etildi.

Tadbirning yakuniy qismi mahorat darslari va sho'ba yig'ilishlaridan iborat bo'lib, unda qatnashchilar jahon tibbiyotidagi eng so'nggi yutuqlar hamda ilmiy ishlamalar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lishdi.

G'iyosiddin ASALOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Allergobiya, klinik immunobiya va
hamshiralik ishi
kafedrasi assistenti



Go'zallik — ilm-u ma'rifatda.



XALQARO HAMKORLIK

Toshkent tibbiyot akademiyasi Xitoy Xalq Respublikasi tibbiyot universitetlari va muassasalarini bilan xalq tabobati yo'nalishida izchil hamkorlikni olib bormoqda.

Endilikda esa bu kabi hamkorlikda yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda.

Xitoy ambulator jarrohlik alliansi (jamiyati) raisi, professor Zhang Zhenzhong

boshchiligidagi ushbu jamiyat rahbarlari akademiyaga tashrif buyurdi. Tashrif chog'iда ambulator jarrohlik yo'nalishini o'zaro rivojlantirish maqsadidagi hamkorlikni Akademiya bilan aloqalar orqali boshlash haqida mehmonlar tomonidan takliflar berildi. Shuningdek, qo'shma dasturlar, o'quv-seminarlarini tashkil etish bo'yicha fikrlar almashildi.



Deontologiya saboqlari

TIB XODIMI ODOBI QANDAY BO'LISHI KERAK?

Tibbiyotimiz mustaqillik yillarda har jihatdan ravnaq topdi, yangicha ma'no kasb etdi. Hech ikkinanmay aytish mumkinki, tizimda katta o'zgarishlar yuz berdi.

Avvalambor tibbiyot institutlarining o'qitish hamda kasb amallarini o'rnatish yo'nalishi tubdan o'zgardi. Davolash va profilaktika tizimidagi ish uslublari, bu jarayonlarni jahon andozalari darajasiga ko'tarish borasida ishonchli qadamlar tashlandi. Boshqacha qilib aytganda bemorlar yotib davolanadigan o'rnlarni ko'paytirish, oly ma'lumotli shifokorlar sonini oshirish, davolash muassasalarini va tibbiyot xodimlarining faoliyati, mehnatiga, odamlarni sog'lomlashtirish, salomatligini tiklash, profilaktik tadbirlarning safat va natijalariga qarab emas, qancha bemor yotib davolanganligi, shifokorlarning nechta bemorga qaraganligiga ko'ra to'lash, rag'batlantirish usullaridan voz kechilip, kasallikning oldini olish, muhofazalash sifat va samaradorligi bosh mezon qilib olindi. Shu asnoda poliklinika, ambulatoriya, kunduzgi va xonadon shifokorlari xizmatiga e'tibor kuchaytilib, qishloqning yagona tibbiyot tarmogi, qishloq shifokorlik punktlari qaror topdi. Yana ham aniq qilib aytganda qishloqdagagi ko'p bosqichli tibbiy xizmatdan tuman markazi shifoxonasi va qishloq shifokorlik punktlaridan iborat ikki bosqichli yordamga o'tish maqbul ko'rildi. Eng muhimmi, tizimda raqobat vujudga keldi. Hukumatimiz va Prezidentimizning tizimdagisi islohotlarni chuqurlashtirish, davolash muassasalarini, dorixonalar, stomatologiya xizmatini davlat tasarrufidan chiqarib, yakka tartibda ishslash uchun litsenziyalarni berish, shaxsiy shifoxona va poliklinika tarmog'ini yaratish, yillik tibbiy xizmatni tarkib toptirish yo'lidagi sa'y-harakatlarining samarasini sifatida mamlakatimizda davlat tasarrufidagi davo muassasalarini bilan raqobat ko'rsatuvchi tibbiy tarmoq shakllandi. Amaliyotchi, oilaviy va yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi shifokorlar qatlami vujudga keldi.

Har qanday yangilik, ijobji o'zgarishlar

va tarraqqiyot sari intilishlar jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar, xato va kamchiliklar uchrashi tabiy. Hamma gap sharoitni to'g'ri tan olib, yuz bergan holatni odilona tahlil qilib chora-tadbirlar ko'rishda. Nazarimda tizimdagisi islohotlar samarasi kutilgan natijani berishi, jahon andozalariga moslashishi uchun birinchi navbatda xodimlar masalasini jiddiy hal etish lozim. Hozir tizimda 70 mingdan ko'proq olyi malumotli shifokorlar, 260 mingga yaqin o'rta tibbiyot xodimlari faoliyat ko'rsatadi. Yevropa davlatlari bilan taqqoslaganda ularning soni bizda anche ortiq. Shunga qaramasdan malakali tibbiy yordam ko'rsatish sog'liqni tiklash, profilaktika darajasi anche past. Buning sababları nimada?

Nazariy bilimlar va amaliy mahoratlar darajasi pastligida. Ikkinchidan, tibbiyotchilarining moddiy ta'minoti birinchi o'ringa o'tib, uning ma'naviy jihatlari, saviyasi ikkinchi o'ringa tushib qolgan. Oqibatda bemorlarda tibbiyotga, tibbiyotchilarga ishonchi so'nadi.

Hatto diplomli shifokorlar orasida ham manfaatparast, bemehr, bilimlarni oshirishga intilmaydiganlari borligini bilasiz-ku! Shunday ekan shifokorlar bilimi, tajribasi, hatto noyob iste'dodi ham bemorga dalda berish, joniga oro kirishda kamlik qiladi. Avvalo shifokorning imoni pok, niyati xolis, vijdoni sof, labzi shirin, chehrasi ochiq, xushmuomalasi bo'lmoqi lozim. "So'z borki, dillarga shifo keltirar, so'z borki boshlarga balo keltirar" deyilmagan. Shifokorning o'ylab, topib aytgan bir og'iz shirin so'zi to'shakka mixlanib qolgan bemorga jon baxsh etib, oyoqqa turg'izib yuborishi va aksincha uning hayotiga zomin bo'lishi mumkin. Hayotda bunday misollar oz emas.

Biz aynan shirin so'zi, xushmuomalasi, yaxshi odobi va xulqi, bilim va tajribasi bilan boz ustiga kamtarligi va bemorga mehribonligi bilan el-yurt hurmatinini qozonayotgan, halol mehnatlari, fidoyilik va jonkuyarligi bilan ibrat ko'rsatib, kasbimiz sharafini ulug'layotgan yaxshi

shifokorlarimiz ko'payishi, odamlarda ularga nisbatan ishonch va hurmatlari oshib, ar-Roziy, al-Buxoriy, Ibn Sino kabi salaflarimiz merosi va an'analariga sodiq shifokorlar safi kengayishiga tilakdoshimiz.

Xo'sh, biz orzu qilayotgan yaxshi shifokorlar qanday bo'lislari kerak?

Shifokor qabuliga kelgan bemor avvalo uning yuz-ko'zi, kayfiyati yaxshiyomonligiga e'tibor beradi, qovog'i soliq, peshonasi tirishgan, harakatlari besaranjom, muomalasi sovuq bo'lsa bemor dardini zo'raytirib o'tirmasdan, ortga qaytishni ma'qul ko'radi. Shifokor o'z qabuliga kelgan bemorni ochiq chehra bilan kutib olishi, o'tirishga joy ko'rsatishi, boshqa ishlarini yig'ishtirib qo'yib, bemorni diqqat bilan tinglashi, dardiga davo qidirishi lozim.

Ikkinchidan, ayrim tamagirlirk va vijdonsizlik yo'liga kirgan shifokorlar ham uchrab turadi. Bunday nopol, shifokor degan nomga nomunosib kimsalar haqida tegishli tashkilotlariga arz-shikoyatlar kelib turadi, ayrimlari ustida jinoi yish qo'zg'atilib, tergov ishlari olib boriladi. Bunday dalillarga duch kelganimda qalbimni allaqanday noxush tuyg'ular egallyaydi. Albatta, ayrim ruhiy nosog'lom kimsalar o'zidagi dardni, falokatni va kulfatni sababchisi falon shifokor degan xayol bilan o'ralashib qoladi, oqibatda bir pokiza insonning ustidan shikoyat qilib bormagan idorasini qolmaydi. Yoki tan olib aytish kerak, bunday holatlar kimningdir uyuşhtirishi, g'arazli niyati yoxud moddigi manfaatdorligi uchun ham yuz beradi.

Shifokor juda noyob va sharaflı kasb sohiblari. Bemor hech kimga, hatto tug'ishganlari, oila a'zolariga aytolmaydigan dardlarini unga yoradi. Shu boisdan ham shifokor o'z nomiga munosib bo'lishi kerak.

Alijon FAQIROV,
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi
akademigi, Sog'liqni saqlash a'lochisi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Turon FA akademigi, Turon xalq yozuvchisi



Davlat tugari, bilim tugamas.



PARKINSON KASALLIGINI ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Parkinson kasalligi bosh miyaning eng ko'p tarqalgan neyrodegenerativ kasalliklaridan biridir. Ushbu kasallikning tarixi uzoq-uzoq yillarga borib taqalsa-da, hanuzgacha kasallikning to'liq etiopatogenezi oxirigacha o'rganilmagan.

Bemorlarda nogironlik holatining oshib borishining asosiy sababi ham ana shunda. Oxirgi yillar ma'lumotiga qaraganda kasallikning uchrash chastotasi 100000 aholiga 100-250 bemorni o'z ichiga olib, o'rtacha 60-65 yoshni tashkil qiladi. Dunyo bo'yicha 7-10 million kishi Parkinson kasalligi bilan og'riganligi va har 10 nafar bemordan bittasi 50 yoshdan past yoshga to'g'ri kelishi qayd qilingan.

Parkinson kasalligi asosan yoshi katta insonlarda ko'proq uchrasa-da, butun dunyoda ham, bizning respublikamizda ham yosharib bormoqda. Kasallikning nasliy-degenerativ ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz, kasallik genlarining mutatsiyaga uchrab ketayotganligi esa ko'plab omillarga uzviy bog'liqdir. Jumladan ijtimoiy omil, ya'nii yaqin qarindoshlar

o'rtasidagi nikoh tuzilishi alohida o'r'in tutadi. Bu kabi holatlarning oldini olish borasida respublikamizda ko'plab loyihibar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda Parkinson kasalligini zamonaviy davolash usullari to'g'risida juda ko'plab ma'lumotlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, kasallikni neyroxiurgik jarrohlik usuli yordamida davolanishi alohida ahamiyatga ega. Bu borada respublikamizda ham tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi mutaxassislar tomonidan alohida ta'kidlandi.

Parkinson kasalligini erta diagnostikasi va davolash tamoyillari to'g'risida juda ko'plab ilmiy loyihibar amalga oshirilmoqda. Biz bilamizki, bu borada Toshkent tibbiyot akademiyasi va Toshkent davlat stomatologiya institutining professor-o'qituvchilari yetakchi o'rinda turadi.

O'tkazilgan tadbir klinik nevrologiya va tibbiy genetika, shuningdek, neyroxiurgiya



sohasidagi mutaxassis shifokorlarda juda katta qiziqish uyg'otdi. Parkinson kasalligi bilan og'rigan bemorlarni reabilitatsiya qilish va ularning hayot sifatini yaxshilash borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferensiyaning asosiy maqsadi Parkinson kasalligini erta diagnostikasi va zamonaviy davolash usullari to'g'risida yangi yo'nalishlar bo'yicha mulohaza yuritish va malaka almashish hisoblanadi.

Bu kabi tadbirlarning asosiy maqsadi yosh mutaxassislarni fikrini eshitish, ularning malakasini oshirish, yangi innovatsion usullarni sog'liqi saqlash amaliyotiga tatbiq qilishdir.



Hayotning berilgan ne'mati Ona,
Dilimda jo bo'lgan mard-u mardona.
Tun-u kun men uchun bo'lib parvona,
Mehribon, azizam, mo'tabar Onam.

Farzandlar uchun yashaysiz mudom,
Ona so'ziga teng kelmasa kalom.
Ezgulik nuridir aziz ushbu nom,
Dilimning tugundagi yechimi Onam.

Bezangan jismingiz ko'zni yoritar,
Ko'ngil g'ash bo'lsa bir zum aritar.
Dunyoni xironmas sitam qaritar,
Ko'ngilning serchashma ziloli Onam.

ONAM



Ilkimdan ushlab kelajak tomon,
Saralay olasiz kim yaxshi, yomon.
Doimo baxtimga bo'ling siz omon,
Yo'limni yoritgich mardona Onam.

Do'stlar-u boyliklar bo'larmi Ona?
Hayot tashvishlari bitarmi Ona?
Anglaganim onam sizsiz yagona,
Umri jannatim bepoyon Onam.

Sizni ta'riflashga qalamim ojiz,
Har misra yozganda dil etadi jiz.
Bo'layin sizga munosib o'g'il,
Qalb qo'ri, qalbimning muniri Onam.

Sarvarbek SOBIROV



Kitobsiz aql — qanotsiz qush.



Tibbiyot fani ravnagiga munosib hissa qoshgan, taniqli olma O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan fan arbobi, tibbiyot fanlari doktori, professor Xurshida Ibniaminovna Yanbayevaning tavallud topganiga 100 yil to'ldi.

X.Yanbayeva 1924-yil 7-iyunda Toshkent shahrida tavallud topdi. Tibbiyot fanining buyuk darg'alaridan biri professor Zulfiya Umidova xonadonida ulg'aygan Xurshida opa yoshligidanoq zahmatkash olma, mukarrama validasiga o'xshab, insonlar dardiga davo topish, ularning sog'lig'i saqlashdek mas'uliyatlari kasb egasi bo'lish orzusi bilan ulg'aydi. Bo'lgsi shifokorning tibbiyot olami bilan ilk uchrashuvni Ikkinchini jahon urushi yillariga to'g'ri keldi. U 1942-yili Toshkentdagidagi 3664-evakogospitalda dastlab sanitar instruktur keyinchalik esa tibbiyot hamshirasiga sifatida yaradorlar, bemorlar dardini yengillashtirishda shifokorlar bilan birgalikda kurashdi. Shu bilan birga o'zining qalbida ham shifokor bo'lish orzusi tobora mustahkam ildiz ota bordi. Ushbu qutlug' niyat uni 1-Moskva Tibbiyot Institutiga o'qishga kirishga yetakladi va bu institutni 1948-yili «imtiyoziydiplom» bilan tugalladi.

O'z ishlari faoliyatini 1949-yildan ToshDavTIning sanitariya-gigiyena va pediatriya fakultetlarining gospital terapiya kafedrasida klinik ordinatorlikdan boshladi.

1953-1955 yillari "Tez yordam" klinik kasalxonasida vrach-terapevt, 1955-1960 yillari ToshDavTIning gospital terapiya kafedrasida assistent, 1960-1966 yillari "O'lkha patologiyasi" ilmiy-tadqiqot institutida katta ilmiy xodim, 1967-1969 yillari

ToshDavTIning markaziy ilmiy laboratoriysi mudiri, 1969-1976 yillari esa gospital terapiya kafedrasida professori vazifalarida faoliyat ko'ssatdi.

Yosh shifokor bemorlarni davolash bilan birga qalbida ular sog'ligi uchun zarur bo'lgan ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangiliklar yaratish ishtiyobi tug'yon urardi. Shu maqsadda olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlarning natijsasi sifatida X.Yanbayeva 1956-yilda "Revmatizmli va septik endokarditli bemorlar yurak-qon tomir tizimi funksional holatinining va reaktivligining ba'zi xususiyatlari to'g'risida" mavzusida nomzodlik va 1966-yilda esa "O'zbekistonda revmatizmlar bemorlarning klinikasi va epidemiologiyasi xususiyatlari" bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Olimaning bu izlanishlari, ayniqsa, revmatizmning epidemiologik xususiyatlari, u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammollarning o'rganilishi O'zbekistonda birinchi bor o'rganiganligi bilan qimmatli va ahamiyatiligi tuyfayli ilmiy ish faqatgina mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarda ham yuksak baholadidi.

1977-yildan 1991-yilgacha Toshkent Davlat Tibbiyot institutining 2-davolash fakultetining "Gospital terapiya harbiy dala kursi bilan" kafedrası mudiri vazifasida faoliyat ko'ssatdi va talabchan rahbar, iste'dodli pedagog sifatida kafedra xodimlari hamda talabalar hurnatmini qozondi.

X.Yanbayeva kafedradagi faoliyati mobaynida tibbiyot sirlarini o'rganishda zamonaviy usullarni egallash, yangiliklarni amaliyotga tatbiq qila olishda kafedra xodimlarining ilmiy izlanishlariga imkoniyat yaratara bildi. Bu yillari kafedra xodimlari tomonidan kardiologyaning rivojlanishiga munosib hissa qoshilib, issiq iqlimli o'lkalarda, jumladan, mamlakatimizda yurak ishemik kasalliklari, yurak nuqsonlari, arterial gipertenziyalarning metereologik sharoitlarga, fizik faoliyikka nisbatan gemodinamik moslanishlar, klinik ko'rinishlarining o'ziga xos xususiyatlari, glomerulonefritlarda immunologik jarayonlar bo'yicha izlanishlar olib borilib, surunkali glomerulonefritda, lyupus nefritda, revmatoidlik nefritda "Batriden" immunosupressori ta'siri o'rganilib, amalda qol'anila boshlandi, shuningdek, buyrak ustti mag'z qavati holatiga

surunkali glomerulonefrit va lyupus nefrit patologiyasida ularning aktivligi darajasiga ko'ra qo'llanadigan glyukokortikosteroidlar ta'siri o'rganildi, nefropatiyaning aktivlik darajasini baholash va uning matematik modulini yaratishga ahamiyat berildi.

Kafedraga rahbarlik yillari mobaynida professor X.Yanbayevaning mohir tashkilotchi, rahbar va talabchan olma sifatida yosh mutaxassislarni tayyorlashdagi qobiliyati yanada namoyon bo'ldi.

1991-yilgacha kafedrada 30 dan ortiq mutaxassis klinik ordinatura va aspiranturada tahsil oldi.

1991-2005 yillar mobaynida professor X.Yanbayeva Toshkent tibbiyot akademiyasi (sobiq Birinchi Toshkent Davlat Tibbiyot instituti) ning gospital terapiya kafedrasida professori lavozimida faoliyat ko'ssatdi va o'z bilimi, ko'p yillik amaliy ko'nikmalarini kafedraning yosh xodimlari, malaka oshirish kursi tinglovchilarasi, aspirantlari, magistr-rezidentlari, 4-5-kurs talabalariga o'rgatib keldi.

U kishi tomonidan chop etilgan ma'ruzalar va o'nlab uslubiy qo'llanmalarda tibbiyotning oxirgi yutuqlaridan foydalilanigan.

Kafedradagi ilmiy pedagogik faoliyati bilan mushtarak professor-maslahatchi sifatida X.Yanbayeva RDShTYOIMIning tezkor kardiologiya, kardioreanimatsiya, tezkor terapiya bo'limlari shifokorlariga o'zlarining qimmatli maslahatlari, yordamini berib kelgan.

Professor X.Yanbayeva zahmatkash, serqirra, tashabbuskor olma sifatida ham tabobat olamida o'zining munosib

o'rninga ega. U kishi boshchiligidagi 2 ta doktorlik, 32 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. U "Yurak nuqsonlari" (1962 y. rus tilda), "Revmatizm va yurak nuqsonlari" (1965 y. rus tilda), professor T.Soliyev hammallifligida "Revmatoidli artrit" (1975 y. rus tilda), professor Z.Umidova va boshqalar hammallifligida yozilgan "Issiq o'lkha kardiologiyasi ocherklari" (1975 y. rus tilda) va boshqa shu kabi 6 ta monografiya, 180 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi edi.

Professor X.Yanbayeva ko'p yillar mobaynida Respublika kardiologlari jamiyatiga raislik qildi, ko'plab kardiologiya, terapiya, revmatologiya, nefrologiya jamiyatlarini boshqaruvchi a'zosiga sifatida faoliyat ko'ssatdi va Katta Meditsina Ensiklopediyasining 3-nashriga hammuharrirklik qildi. Olimaning 2003-yilda Respublikamizning 12 yillik to'yiga to'yona sifatida "Issiq o'lkha kardiologiyasi ocherklari II" monografiyasining nashrdan chiqishi esa kardiolog shifokorlar va tibbiyot instituti talabalarini uchun munosib tuhfa bo'ldi.

Bu monografiyada olma ko'p yillik ilmiy va amaliy kuzatishlarining hosisasini bayon etib, jumladan issiq o'lkalardan biri bo'lgan mamlakatimizda kardiologik bemorlarning organizmiga, shuningdek, essensial gipertenziya va nefrogen gipertenziyaning kechishiga iqlim sharoitining ta'sirlari, gemodinamik, qon aylanishi yetishmovchiligining o'zgarishlarining o'ziga xos xususiyatlariiga batapsil to'xtalgan.

Olimaning tibbiyot sohasidagi fidoyi xizmatlari munosib taqdirlandi. X.Yanbayevaga "O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan fan arbobi" unvoni berilgan, 1999-yilda esa "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandi.

Zahmatkash olma tom ma'noda el-yurt hurmatini qozondi, eldan mehr topdi, o'z mehrini berdi. Zero, butun umrini insonlar sog'ligini saqlashdek sharaflu, shuning bilan birga o'ta mas'uliyatlari kasbga bag'ishlagan bu motabar olma, serqirra pedagog, ardoqli shifokor u kishini bilgan hamkasbleri, shogirdlari, qolaversa, davolagan bemorlari xotirasida hurmat bilan qoladi va eslanadi.

Zotan, xotira - muqaddas, qadr - abadiydir!

**Shoira QODIROVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi katta o'qituvchisi**

USTOZLAR YODI...



Ota hunari — bolaga meros.





BO'LAJAK SHIFOKORLAR QASAMYOD QABUL QILDI



Toshkent tibbiyot akademiyasining 2023-2024 o'quv yilida magistratura yo'nalishini tamomlayotgan xalqaro toifadagi birinchi bitiruvchilardir!

Bu yil Toshkent tibbiyot akademiyasini bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida 1200 ga yaqin talaba tamomlamoqda.

Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan tashkil etilgan mazkur tadbirni TTA rektori v.b. Sh.Boymurodov kirish so'zi bilan ochib berib, bitiruvchilarga ezgu tilaklarini bildirib o'tdi.

"Toshkent tibbiyot akademiyasi o'z an'analariga ega, o'z uslubi, imijini asrlar davomida saqlab kelayotgan qutlug' dargohdir", bu so'zlar

Toshkent tibbiyot akademiyasi bitiruvchilarining an'anaviy qasamyod qabul qilish marosimida baralla yangradi.

Tantanali marosimda bitiruvchilarimizning muhim tarixiy voqelik, Akademianing xalqaro akkreditatsiya komissiyasi tomonidan 19 ta yo'nalish bo'yicha tan olinganligiga guvoh bo'lganliklari katta iftixon bilan ta'kidlandi.

Mazkur marosimda Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati, bitiruvchi yoshlar va ularning ota-onalarini ishtiroy etishdi.

Tadbir davomida bitiruvchilarga diplom va o'qish davrida namunali xulqi, bilimi bilan tengdoshlari orasida

ajralib turgan bitiruvchi yoshlarning ota-onalariga hamda o'quv yili davomida yuqori natijalarga erishgan pedagoglarga tashakkurnomalar topshirildi.

Ma'lumot o'rniда joriy o'quv yilida Toshkent tibbiyot akademiyasining magistratura yo'nalishini 246 nafar magistr bitirgan bo'lib, shundan 1 naferi xalqaro stipendiya sohibi tamomladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bitiruvchilarning 100 dan ziyod xorijiy tilni bilish sertifikatlariga ega.

G'iyosiddin ASALOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Allergologiya, klinik immunologiya
va hamshiralik ishi
kafedrasi assistenti



SOG'LOM OVQATLANISH – SALOMATLIK GAROVI

Toshkent tibbiyot akademiyasining Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasi tomonidan xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Mazkur konferensiyada nafaqat TTA professor-o'qituvchilari balki Ozarbayjon, Turkiya, Tojikiston, Qozog'iston va Hindiston tibbiyot universitetlaridan professor-o'qituvchilar online tarzda ishtiroy etishdi. Bu jarayonda men ham ishtiroy etdim.


Tadbirda so'zga chiqqanlar bugungi kunda noto'g'ri

ovqatlanishning dolzarb muammolari va ularning yechimlari haqida ma'ruzalar qilishdi.

Bundan tashqari, Guli Shayxova biologik faol qo'shimchalarining bugungi kundagi o'rni va qabul qilish va foydalı jihatlari haqida ma'lumotlar berib o'tdi.

Konferensiya so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi.

Zulkumor ZOKIROVA,
"Doktor reportyor" debat yoshlar klubi faoli



Yuzga kirsang, yuz yil o'qi.

Inson uchun eng ulkan boylik bu uning sog'lig'i hisoblanadi. Ammo bu boylikni yemirib, inson salomatligiga va jamiyatga xavf soluvchi kushandalar ko'p.

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab energetik ichimliklar keng tarqalgan. Uning alkogolli va alkogolsiz xili mavjud. Alkogolsiz energetik ichimlik balog'atga yetmagan yoshlar o'tasida juda ommalashdi. O'yin-kulgiga ruju qo'ygan yoshlar uning xuddi dastlabki "tetiklashtirganday" xususiyatiga aldanib, bemalol iste'mol qilishda davom etishmoqda. O'z ixtiyorlari bilan ulardan voz kecha olmaydigan darajaga kelganlarida esa kech bo'lismeni, uning vaqtinchalik "sehrli" ta'sirining keyinchalik xavfli - "salomatli kushanda" siga olib keluvchi salbiy oqibatini xayollariga ham keltirishmaydi.

Energetik ichimliklar birinchi marta 1960-yilda Yaponiyada, tibbiyotda "quvvatbaxsh" ichimlik - doris vositasi sifatida foydalanish uchun yaratilgan. Dastaval inson salomatligi uchun zararsiz deb hisoblangan energetik ichimliklar asta-sekinlik bilan Yevropa va AQSHni zabit etdi. Lekin bu ichimliklar keyinchalik salomatlikdan ko'ra biznesga ko'proq xizmat qila boshladi. Shuning barobarida ichimlikni ommalashtrish maqsadida uning tarkibiga bir qancha kimyoviy moddalar qo'shilib bordi. 2006-yili butun dunyoda 500 yaqin energetiklarning turlari paydo bo'la boshladi. Alkogolsiz energetik ichimlik balog'atga yetmagan yoshlar o'tasida juda ommalashdi.

Oxirgi 10 yillikda energetik ichimliklarni qabul qilish oshgan. Ijtimoiy-siyosiy nazorat ilmiy-tadqiqot markazining malumotlariga ko'rva agar 2013-yilda bu ichimliklarni iste'mol qilish 16,6 foiz tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda esa 22,8 foizga oshgan. Erkaklar (32,4 foiz) ayollar (14,8 foiz)ga nisbatan 2 marta ko'proq qabul qilgan. 2023-yilda energetik ichimliklarni qabul qilish rossiyalik yoshlar orasida 18-24 yosh orasida 53,2 foiz, 25-29 yosh orasida 49,7 foizni tashkil etgan.

Bu ichimlik tarkibidagi aromatizatorlar (shirin va nordon ta'm beradi), kimyoviy birikmalar (ta'mni kuchaytiradi), rang beruvchi moddalar, konservantlar mavjud. Ularning kishi organizmiga ta'siri ichimlik tarkibidagi ba'zi kimyoviy birikmalarning ta'siri bilan bog'liqligi olimlar tomonidan o'rganilan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, energetik ichimliklar

me'yordan ortiq va surunkali iste'mol qilinsa, inson organizmidagi ba'zi organ va tizimlarga (bos miya, markaziy nerv tizimi, bo'g'imir) salbiy ta'sir ko'rsatadi va tez-tez iste'mol qilgan insonlarda unga tobeklik holati kuzatiladi. Bitta energetik ichimlik tarkibida esa o'ttacha 30 mg. kofein mavjud. Kofein va ichimlik tarkibidagi "kofein niqobi" dagi guaran moddasining miqdori ko'pligi sabab, ichimlik dastlab tanaga kuchli quvvat berib, yurak yugori ritmda ishlashiga, qon bosimining ko'tarilishiga, natijada yurak charchab, yurak qon-tomir kasalliklari rivojlanishiga moyillik tug'diradi.



Shuningdek, talabalarning 9 foizida tez-tez bosh og'rig'i, ba'zida bosh og'rig'i 7 foiz, tez-tez bosh aylanishi - 6 foiz, ba'zida bosh aylanishi - 31 foiz, uyquning buzilishi - 60 foiz aniqlandi. Energetik ichimliklar iste'molidan so'ng "tetiklik" hissini - 36 foiz, aksincha - horg'inlik hissini - 33 foiz talaba o'zida his etishgan, 31 foiz talaba esa bu savolga javob berishda qynalgan. Energetik ichimliklarning iste'molidan 82,5 foiz talaba voz kechishi mumkinligini, 8,8 foiz talaba voz kechmasligini va 8,7 foiz talaba esa ikkilanishini aytishgan.

Energetik ichimliklarni muntazam qabul qilish tufayli miokarda distrofik o'zgarishlar, ritm buzilishlari yuzaga kelib, bu esa keyinchalik kardiomiopatiyaga zamin yaratadi. "Quvvatbaxsh" ichimliklar qisqa muddatda organizmga zararli ta'sir ko'rsata boshlaydi, lekin tarkibida ortofosfat kislotsasi borligi uchun bu holat sezilmaydi, 45 daqiqadan so'ng dofamin ishlab chiqarilishi ortib, bosh miyada rohatlanish, qoniqish markazini qo'zg'atadi. 70-80 daqiqadan keyin aks ta'sir qilish vaqtি boshlanib, organizmda holsizlik holatlari yuzaga keladi.

Kishilarning doimo energetik ichimliklarni iste'mol qilishi ularning bosh miyasi po'stlog'ida mustahkam shartli reflektor aloqalarini vujudga keltiradi, ular asta-sekin makkor tobeklikka olib keladi. Dastlab, energetik ichimliklarning bir-ikki idishini qabul qilishdan so'ng miyada qon ayanishning qisqa muddatli yaxshilanishi natijasida go'yo, ish qobiliyati oshgandek tuyuladi, vaholonki, bu "soxta rag'bat" hisoblanadi. Tez-tez va muntazam iste'mol tufayli esa miyaning mantiqiy-axborot yig'ish shaklidagi aktivlashtiruvchi qobiliyati erta toliqadi.

Shahnoza XODJANOVA,
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori,
2-son fakultet va gospital terapiya,
nefrologiya va gemodializ kafedrasи katta
o'qituvchisi

“XAVFSIZ ICHIMLIK”NING XAVFLI OQIBATLARI...

Germaniyaning Bonn shahri Universiteti olimlari tomonidan energetik ichimlik iste'mol qilgan 17 nafar kishi yuragi skanner tekshiruvidan o'tkazilganda ularning barchasida yurak qisqarishlari soni tez oshganligi aniqlangan. Energetik ichimlikning tarkibidagi taurin, guaran birikmasi esa aritmiyaga sabab bo'lishi ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. AQSHlik tadqiqotchilar guruhi energetik ichimliklar tarkibida kofein moddasi bo'lgan boshqa ichimliklardan ko'p marotaba xavfli ekanini aniqladilar. Bu haqida Amerika kardiologiya uyushmasi mutaxassislari ma'lumotlariga ko'ra, energetik ichimliklar yurakdagi QT intervali (yurakning elektrik sistolasi)ni o'ttacha 2 soatda 10 millisoniyaga oshiradi.

Energetik ichimliklarning tadqiqotda ishtirok etganlarning yurak qon-tomir tizimiga ta'sirini o'rganilganda quyidagalar aniqlandi: yurak sohasida og'riq yo'qligini 53 foiz, ba'zida og'riqni 47 foiz, tez-tez og'riq 5 foiz talaba his etgan. 57 foiz - holda normokardiya, 36 foiz - taxikardiya, 5 foiz - bradikardiya, 2 foiz - aritmiya kuzatilgan. Bir va undan ortiq yillarda mobaynida energetik ichimliklar qabul qilgan talabalarning o'ttacha sistolik AQB 130 mm. sim.ust., o'ttacha diastolik AQB 75 mm. sim.ust.ga va bir yildan kam mobaynida energetik ichimliklar iste'mol qilganlarda esa bu ko'rsatkichlar o'ttacha sistolik AQB 120 mm. sim.ust., o'ttacha diastolik AQB 70 mm. sim.ust. ni tashkil etgan.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda 02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RIZOGRAFIda
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun mas'ul
Q.Nizomov